

## INVESTITSIYALAR HISOBINI YURITISHDA XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARINING AHAMIYATI

*Shokirov Shohruhmirzo Baxtiyorjon o'g'li*

*Andijon davlat texnika instituti*

*“Menejment” kafedrasi assistenti,*

*Abdujalil Chirmashev Maxammadibrohim o'g'li*

*Andijon davlat texnika instituti*

*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*E-mail: abdujalilchirmashev@gmail.com,*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiyalar hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Maqolada investitsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinib, xalqaro standartlar asosida moliyaviy investitsiyalarni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada investitsiyalar hisobini yuritishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablarini qo'llashning afzalliklari, moliyaviy axborotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirishdagi roli hamda investorlar uchun axborot ta'minotini yaxshilash imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, investitsiyalar hisobi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, moliyaviy hisobot.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar korxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsion faoliyat hajmining ortib borishi investitsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri va ishonchli aks ettirish zaruratini yuzaga keltiradi [1]. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, xalqaro kapital bozorlarining rivojlanishi hamda xorijiy investorlar sonining ko'payishi investitsiyalar hisobini yuritishda yagona va umumqabul qilingan standartlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) investitsiyalar hisobini yuritishning zamonaviy va samarali uslubiy asosini shakllantiradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalarni tan olish, baholash, tasniflash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning yagona qoidalarini belgilaydi. Mazkur standartlarning asosiy maqsadi investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlarni korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi haqqoniy va taqqoslanadigan ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Investitsiyalar hisobini yuritishda ayniqsa IFRS 9 “Moliyaviy

instrumentlar”, IAS 28 “Assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalar investitsiyalar”, IFRS 12 “Boshqa subyektlardagi ulushlar to‘g‘risida ma’lumotlarni oshkor qilish” hamda IFRS 10 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” standartlari muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Investitsiyalar hisobini yuritishda xalqaro standartlarning eng muhim jihatlaridan biri investitsiyalarni iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib tasniflash imkoniyatini yaratishidir [3]. An’anaviy hisob tizimlarida investitsiyalar ko‘pincha ularning huquqiy shakliga qarab guruhlangan bo‘lsa, IFRS talablariga ko‘ra investitsiyalar korxonaning biznes modeli va moliyaviy aktivlardan olinadigan iqtisodiy manfaatlar xususiyatiga qarab baholanadi. Natijada moliyaviy hisobot foydalanuvchilari investitsiyalarning haqiqiy iqtisodiy mohiyatini aniqroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xalqaro standartlarning investitsiyalar hisobidagi yana bir muhim afzalligi adolatli qiymat (fair value) konsepsiyasini keng qo‘llash bilan bog‘liq. IFRS 9 talablariga ko‘ra ko‘plab moliyaviy investitsiyalar bozor qiymati asosida baholanadi. Bu esa investitsiyalarning real bozor sharoitidagi qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkonini beradi [4]. Tarixiy qiymat usuli aktivlarning joriy qiymatini to‘liq ifodalay olmasligi sababli investorlar uchun ayrim hollarda noto‘g‘ri xulosalar chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Adolatli qiymat tamoyili esa investitsion aktivlarning amaldagi bozor bahosini ko‘rsatib, qaror qabul qilish sifatini oshiradi.

Investitsiyalar hisobini yuritishda xalqaro standartlarning o‘rni moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi [5]. IFRS talablariga ko‘ra korxonalar investitsiyalarning tarkibi, turi, tavakkalchilik darajasi, baholash usullari va investitsiyalardan kutilayotgan natijalar haqida keng qamrovli ma’lumotlarni oshkor etishlari lozim. Bu esa investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga korxonaning investitsion faoliyatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Natijada axborot asimmetriyasi kamayadi va investitsion muhitning jozibadorligi ortadi.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining investitsiyalar hisobidagi ahamiyati xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida yanada kuchaymoqda. Xorijiy investorlar investitsiya kiritishdan oldin korxonaning moliyaviy hisobotlarini tahlil qiladilar [6]. Agar hisobotlar xalqaro standartlar asosida tayyorlangan bo‘lsa, investorlar korxonaning moliyaviy holati va investitsion salohiyatini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli IFRS talablari asosida yuritilgan investitsiyalar hisobi korxonalarining xalqaro kapital bozorlariga chiqishi va xorijiy moliyaviy resurslarni jalb etishiga xizmat qiladi.

Investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish risklarni boshqarish samaradorligini ham oshiradi. IFRS 9 standartida kredit risklarini baholash va kutilayotgan zararlar modelidan foydalanish talabi mavjud. Ushbu yondashuv investitsion aktivlar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni oldindan

aniqlash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkonini beradi. Natijada korxonalar investitsiyalar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni o'z vaqtida baholab, zarur boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yirik aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari va strategik ahamiyatga ega korxonalar moliyaviy hisobotlarni IFRS talablari asosida tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Ushbu jarayon investitsiyalar hisobini xalqaro talablarga mos ravishda yuritish, moliyaviy axborotlarning sifati va ishonchliligini oshirish hamda mamlakat investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro standartlar investitsiyalar hisobini yuritishda turli mamlakatlar korxonalarini moliyaviy hisobotlarini o'zaro taqqoslash imkonini yaratadi. Bu holat xalqaro investorlar uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki investorlar bir nechta mamlakatlarda faoliyat yurituvchi korxonalarni bir xil mezonlar asosida baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada kapitalning samarali taqsimlanishi va investitsion qarorlarning asoslanganligi ta'minlanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hisobining samaradorligi moliyaviy axborotlarning sifati, shaffofligi va tezkorligiga bevosita bog'liqdir. Rivojlangan davlatlarda investitsiyalar hisobi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritilishi natijasida investorlar uchun ishonchli axborot muhiti shakllangan. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda IFRS talablarini joriy etish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, investitsiyalar hisobini tashkil etish va yuritish amaliyotida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, investitsion aktivlarni baholashning zamonaviy usullaridan yetarlicha foydalanilmasligi, adolatli qiymat asosida hisob yuritish amaliyotining cheklanganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi investitsiyalar hisobi samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda investitsiyalar hisobini takomillashtirishning birinchi yo'nalishi sifatida investitsion aktivlarni baholashda adolatli qiymat konsepsiyasidan foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Kanada kabi davlatlar amaliyotida investitsiyalarni baholashda bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuv keng qo'llaniladi. Natijada moliyaviy hisobotlarda investitsiyalarning real iqtisodiy qiymati aks ettiriladi. O'zbekistonda ham investitsion aktivlar bo'yicha mustaqil baholash institutlarini rivojlantirish va bozor qiymatini aniqlash metodikasini takomillashtirish investitsiyalar hisobi sifati oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim taklif sifatida investitsiyalar hisobi bo'yicha maxsus raqamli platformalarni joriy etish zarur. Singapur, Janubiy Koreya va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsion operatsiyalarni elektron platformalar orqali hisobga olish inson omili bilan bog'liq xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli

O'zbekistonda korxonalarining investitsion faoliyatini monitoring qilish, investitsiyalar harakatini real vaqt rejimida kuzatish hamda moliyaviy hisobotlarni avtomatik shakllantirish imkonini beruvchi integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat hisob ma'lumotlarining aniqligini oshiradi, balki investitsiyalar ustidan nazoratni ham kuchaytiradi.

Uchinchi taklif investitsiyalar hisobida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq. Xitoy, Yaponiya va AQSHning yirik moliyaviy institutlarida investitsion risklarni baholash va prognozlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. O'zbekistonda ham yirik aksiyadorlik jamiyatlari va banklar investitsion aktivlar portfelini tahlil qilish, bozor tavakkalchiliklarini aniqlash hamda investitsiyalar rentabelligini prognozlashda zamonaviy algoritmlarni qo'llashlari zarur. Ushbu yondashuv investitsion qarorlarning asoslanganligini oshirishga yordam beradi.

To'rtinchi taklif sifatida investitsiyalar hisobini yurituvchi mutaxassislarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim. Xorijiy amaliyotda, xususan Buyuk Britaniya va Avstraliyada professional buxgalterlar muntazam ravishda xalqaro sertifikatlash dasturlarida qatnashadilar. O'zbekistonda ham investitsiyalar hisobi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun IFRS 9, IFRS 10, IFRS 12 va IAS 28 standartlari bo'yicha maxsus o'quv kurslarini kengaytirish zarur. Bu investitsion operatsiyalarni hisobga olishdagi xatolarni kamaytirish va hisobot sifatini oshirish imkonini beradi.

Beshinchi taklif sifatida investitsiyalar hisobi va korporativ boshqaruv tizimini o'zaro integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Germaniya va Niderlandiya tajribasida investitsion qarorlar qabul qilish jarayoni moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan uzviy bog'langan. O'zbekiston korxonalarida ham kuzatuv kengashlari va audit qo'mitalarining investitsiyalar hisobi ma'lumotlaridan foydalanish darajasini oshirish lozim. Bu investitsion loyihalar samaradorligini baholash va mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oltinchi taklif investitsiyalar hisobi tizimida ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarini hisobga olish bilan bog'liq. Jahon amaliyotida investorlar moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlariga ham katta e'tibor qaratmoqda. Shu sababli investitsion loyihalarning ekologik va ijtimoiy samaradorligini hisobga oluvchi qo'shimcha hisobot shakllarini joriy etish investitsiyalar hisobining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga yordam beradi.

Yettinchi taklif sifatida investitsiyalar hisobi va auditini uyg'unlashtirish mexanizmini takomillashtirish lozim. Xorijiy tajribada investitsion aktivlarning mustaqil auditi investorlar ishonchini oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. O'zbekistonda ham investitsion operatsiyalar bo'yicha ichki va tashqi audit amaliyotini

kengaytirish, investitsion risklarni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda audit xulosalarining amaliy ahamiyatini oshirish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish moliyaviy axborotlarning ishonchligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlar investitsion aktivlarni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishning yagona metodologiyasini shakllantirib, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun sifatli axborot bazasini yaratadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlar tajribasida investitsiyalar hisobini raqamlashtirish, adolatli qiymat asosida baholash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda ESG tamoyillarini hisobga olish investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi. O'zbekiston amaliyotida ham ushbu ilg'or yondashuvlarni keng joriy etish investitsiyalar hisobini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dusmuradov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 312 b.
2. Эргашева Ш.Т. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2011. 520 стр.
3. Jo'rayev N.Yu. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 165 b.
4. Talibjanovich, Qayumov Botirjon, and Egamberdiyev Shavkatbek. "AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI SIFATINI TA'MINLASHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI." *Modern education and development* 41.3 (2026): 18-27.
5. Azizbek M., Shavkatbek E. XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARINING MOLIYA INSTITUTLARI VA KORXONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI // *Modern education and development*. – 2025. – T. 39. – №. 2. – C. 75-82.
6. Abdujalil C., Shavkatbek E. XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ MOLIYAVIY HISOBOTNI TUZISH ORQALI INVESTITSIYA JALB QILISH IMKONIYATLARI // *Modern education and development*. – 2025. – T. 39. – №. 2. – C. 83-88.